

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-2, ISSUE-13 (26-December)**

**BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA HALI
QO'LLANILMAGAN "BARMOQ TEATRI" DIDAKTIK O'YINIDAN FOYDALANISH. UNING
BOLALARNING IDROKI RIVOJLLANISHIDAGIN AHAMIYATI**

Fattoyeva Feruza Aliyevna

Buxoro viloyati Shofirkon tumani

50-sod muktabning boshlang'ich fani o'qituvchisi

Fattoyeva Mahfuza Hamid qizi

Buxoro viloyati Shofirkon tumani

50-sod muktabning boshlang'ich fani o'qituvchisi

Nasimova Durdonha Faxriddinovna

Buxoro viloyati Shofirkon tumani

4-sod muktabning boshlang'ich fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bizga "Barmoq teatri" didaktik o'yini haqida kengroq ma'lumot berilgan va misollar orqali kengroq yoritilgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasi va Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi"da ushu fikrlar keltirilib o'tilgan. "Taqdirimizni muallim va murabbiy hal qiladi".

Shunday ekan Vatan kelajagi bizning qo'limizga topshirilgan ekan bu ishonchni oqlashimiz va kelajak uchun poydevorni boshlang'ich ta'limdanoq mustahkam qo'yimog'imizni o'z oldimizga oily maqsad sifatida belgilab olish zarur.

Maktab ostonasiga ilk qadam qo'ygan har bir bolaning o'zgacha dunyosi, har birining alohida psixologiyasi mavjud. Buninbilgan holda har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi birinchi navbatda o'quvchining psixologiyasi uning qiziqishlari bilan qiziqadi. Bolalar bilan birga ishlash jarayonid duch keladigan to'siqlarni yengib o'tish uchun unda kechadigan har bir jarayonni nazardan chetda qoldirmaslik lozim.

Maktab ostonasiga kelgan bola unga ilk qalam tutqazib, qo'lidan ushlab harf o'rgatgan ilk mehribonini har qanday vaziyatda ham yaxshi ko'radi, unga mehr qo'yadi. Uyda unga mehribon ona, buvikabilar bo'lsa, maktabda ustozini o'z onasi kabi sevadi, aytgan so'zlarini jon qulog'l bilan tinglaydi.. Uyda ota-onaning so'zini ikki qilsa hamki, ustozining so'zini ikki qilmaydi. Go'yoki bolalar uchun ilk ustoz avliyo kabidir. Qo'yinki bola bor mehrini ustozni uchun istaydi. Uni xursand qilishga harakat qiladi. U uchun a'lo o'qishga astoydil kirishadi.

Shu murg'ak qalb sohiblarining taqdiri bizning qo'limizda ekan, biz o'qituvchilar ham bor bilim, tafakkurimiz ong-u shuurimizni ularga berishga, maktabning eng oldi o'quvchilari qilishga harakat qilamiz. Buning uchun bolalarning ongi, tasavvuri, nutqi, fikrlashi, qiziquvchanligi, topqirlik qobiliyatları, yashirin iste'dodlarini yuzaga chiqarishni, kreativ va erkin fikrlashni rivojlantirishimiz zarur bo'ladi. Buning uchun dars davomida ularning erkin

fikrlashi uchun muhit yaratib berish zarur bo'ladi. Bunday muhitni asosan ona tili va o'qish savodxonligdarslarida qo'llash .(Qolaversa boshqa fanlarda ham ahamiyati katta.) katta samara beradi . unda mavzuga oid muhitn jonlantirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Keling shunday muhitni yaratishda bizga "**Barmoq teatri**" **didaktik o'yini** katta yordam beradi. Unda bola eshitib, ko'rganidan ham ko'proq o'zi bajaradi. Bu bolada malakaning rivojlanishiga turki bo'ladi. Qolaversa bu didaktik o'zin orqali nutq, fikrlash, xotira, e'tibor, ijodiy tasavvur, so'z boyligining boyish, ijobiy xislatlarning uyg'onishi, neyromotorika mashqlari orqali ikki miya yarim sharining rivojlanishi va bu orqali, bilim darajasining rivojlanishi, har qanday murakkabliklarning oson va yengil qabul qilishga sabab bo'ladi.

Barmoq teatri nima?

Barmoq teatri bu- alohida barmoqlar uchun mo'ljallangan individual qo'g'irchoqlar, hayvonlar, ertakni sahnalashtirish uchun ba'zi narsalar yoki taniqli ertak qahramonlari bo'lishi mumkin. Rloj ijro etishda bir vaqtning o'zida turli barmoqlar, juft barmolar, bir va ikki qo'l, bir nechta qo'l bilan ishlash muhimdir. Bularning barchasi harakatlarni muvofiqlashtirishi rivojlantirishgayordam beradi. Barmoq teatri –ertakni bola kaftida joylashtirishning noyob imkoniyati, unda bola har qanday qahramon rolini o'ynashi mumkin.. Qo'girchoqlar ikkala qo'l barmoqlarining harakatchanligini rivojlantiradi, qahramonlarning nutqini., so'z boyligini rivojlanishiga yordam beradi va nutq funksiyalarini faollashtiradi. Nozik vozita mahoratni rivojlantirishga yordam beradi. Barmoq teatrida qo'g'irchoqlar kam joyni egallaydi va katta moddiy xarajat talab qilmaydi.



"**Barmoq teatri**" **didaktik o'yinini** ona tili va o'qish savodxonligi darslarida doimiy qo'llasak ham bo'ladi. Masalan: "Mening oilam" mavzusi uchun 8 soat ajratilgan bo'lib, 1-soatida oila a'zolari berilgan va ularning har biri bilan tanishtirish, ularning fazilatlari haqida aytib o'tilgan.

Shu mavzuga qo'llaydigan bo'lsak, qahramonlarni (oddiy mato yoki plastlin, qog'ozdan ham foydalanilsa bo'ladi) tayyorlab olamiz (bu uyda tayyorlab kelinadi) Ularning har birini barmoqlarimizga kiyib olamiz va xarakteriga ko'ra jonlantiramiz (ya'ni gapirtiramiz). Bunda diqqati tarqoq , e'tiborsiz o'quvchilarning ham darsga qiziqishi ortishiga aniq bo'lish, mavjud bilimlarning kengayishiga sabab bo'ladi. Imkon doirasida bu mashg'ulotni bilimida bo'shilg'I bo'lgan o'quvchilarning aynan o'z qo'llari bilan bajarishlari undagi yashirin qirralarning ochilishiga imkon beradi. O'quvchilarga bobo, buvi, boal, qizaloq, ona obrazlarini uyda plastlin yoki matodan tayyorlab kelish buyuriladi. Bu obrazlar yil davomida darslarda qo'llaniladi.

Yana bir misol qilib ona tili va o'qish savodxonligi darslaridagi "Ertakdag'i qahramon" bobini olsak, unda keltirilgan ertakdag'i qahramonlarni yasab uni barmoqlar yordamida

jonlantiramiz. Chunki ertak qahramoni ertakdag'i voqeanning asosiy qatchisi hisblanadi.. Bu obrazlarni ham7 soat davomida 23.bemalol qo'llash imkonini beradi. Bu bolaga darsga qiziqishini oshirib, qo'l barmoqlarining harakatchanligini rivojlantiradi, nutqni rivojlantiradi, qahramonlarning nutqini rivojlanishiga va nutq funksiyalarining faollashishiga olib keladi. Qahramondagi yaxshin fazilatlarni bola o'zida ko'rish istagi paydo bo'ladi. Xulqida nuqsoni bor bolalar ham o'zidagi kamchiliklarni sezib, qahramonlardagi yaxshi fazilatlarni o'zida aks ettirishga harakat qildilar



Konfutsiy aytganidek " Eshitsam unitaman, ko'rsam eslab qolaman, o'zim bajarib anglab olaman".

Bolalarning ong-u shuurini ilmu tafakkur bilim va tarbiya bilan to'ldirishdan biz to'xtamaganimizdek, Vatanimiz ravnaqiga hissa qo'shib, yurtimiz, millatimizsha'ninibilim tafakkuri bilan yuksaklarga ko'taradigan , intiluvchan, izlanuvchanva tirishqoq o'quvchilarimizko'payib yuzimizni yorug' qilsin va ularning ortidan faxr-iftihorga to'lib yuraylik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1 Sh. Mirziyoyev "Murojaatnomasi" 2022- yil
2. Ona tili va o'qish savodxonligi darsligi 1- sinf (1-2- qismlar) Toshkent 2021- yil
3. Ona tili va o'qish savodxonligi (O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma) Toshkent 2021- yil
- 4 . <https://moscsp.ru>
5. <https://www.genderi.org>
6. <https://hozir.org>
7. <https://anti aim.ru>